

"Taxtaqoracha" (Kitob) dovonining vaqtincha yopilgani to'g'risida



M-39 "Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil yo'lining Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarini bog'lovchi "Taxtaqoracha" (Kitob) dovonidan o'tgan qismlarida 2020 yilning 6 yanvar kuni kuchli qor yog'ishi va ko'rish imkoniyatlarining keskin pasayganligi sababli avtotransport vositalarining harakati vaqtincha to'xtatildi.

Shu boisdan, avtomobil yo'lining mazkur dovondan o'tgan qismlarida harakat xavfsizligi ta'minlangunga qadar avtotransport vositalarining A-378 "Samarqand-G'uzor" avtomobil yo'li orqali harakatlanishi tavsiya qilinadi.

Avtomobil yo'llari qo'mitasi

matbuot xizmati